

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

VOLUME II | ISSUE 2 | FEBRUARY | 2024

ISSN: 2181-4031



Available online at www.imfaktor.com

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 2-СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ- II, НОМЕР-2

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-2

ТОШКЕНТ – 2024

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

№ 2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2024-2>

Бош муҳаррир:

Тураев Б.

– фалсафа фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Расулова Д.

– иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Таҳририят аъзолари:

1. Каримов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент
2. Ходжаметова Гулчира Илишевна – тарих фанлари номзоди, профессор
3. Ҳайдаров Ўрал Ахмадович – иқтисодиёт ф.б.ф.д (PhD), доцент
4. Мусаев Джамалиддин Камалович – юридик ф.б.ф.д (PhD), доцент
5. Жамолдинов Хумоюн Бахтиёрбек ўғли – юридик ф.б.ф.д (PhD), доцент в.б
6. Узакова Зарина Фуркатовна – социология ф.б.ф.д (PhD), доцент
7. Мамадияров Дилшод Уралович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент
8. Тўраев Шавкат Нишонович – фалсафа фанлари номзоди, доцент
9. Бердиева Гулмира Аминовна – тарих фанлари номзоди
10. Гаипов Жасур Бахром ўғли – иқтисодиёт ф.б.ф.д (PhD)
11. Сохибова Лола Жонибоевна – фалсафа ф.б.ф.д (PhD)
12. Шарипов Дилшод Бахшиллоевич – сиёсатшунос, эксперт
13. Содиржонов Мухриддин
Махамадаминович – социология ф.б.ф.д (PhD)
14. Саттаров Дилшод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент
15. Турақулов Акмалжон Анварович – фалсафа ф.б.ф.д (PhD)
16. Каримов Бозарқул Худдайбердиевич – фалсафа фанлари номзоди

“Фундаментал тадқиқотлар” илмий-амалий журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 7.5 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

YULDASHEV Maqsud Mamasaliyevich*Bojxona qo'mitasi
xodimi***MELIBAYEV Xudoyberdi Nematullayevich***Bojxona instituti
magistratura tinglovchisi*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10673193>

KORRUPSIYAGA NISBATAN MUROSASIZ MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHDA O'QUV JARAYONINING O'RNI

ANNOTATSIYA

Korrupsiyaga sezilarli zarba berish uchun, eng avvalo, jamiyatda mazkur illatga qarshi murosasiz muhitni tashkil etishni o'quv jarayonlaridan boshlashimiz lozimdir. Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir fuqaroning, xoh o'qituvchi, xoh bojxona xodimi, xoh ichki ishlar xodimi, xoh prokuror, kim bo'lishidan qat'iy nazar ichki axloqiy-ruhiy maslagi va e'tiqodiga aylanishi kerakki, bu korrupsiyaga qarshi ma'rifatning o'zagini tashkil qiladi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, jamiyat, illat, murosasiz muhit, ta'lim-tarbiya, o'quv jarayoni.

РОЛЬ ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ФОРМИРОВАНИИ БЕСКОМПРОМИССНОГО ОТНОШЕНИЯ К КОРРУПЦИИ

АННОТАЦИЯ

Для того чтобы нанести серьезный удар по коррупции, мы должны изначально начать с воспитательных процессов по созданию бескомпромиссной среды противодействия коррупции в обществе. Борьба с коррупцией должна стать нравственно-духовным убеждением каждого гражданина, независимо от того, кто он-учитель, таможенник, государственный служащий, прокурор и т.д., поскольку она составляет ядро антикоррупционного просвещения.

Ключевые слова: коррупция, общество, правонарушения, бескомпромиссная среда, образование, образовательный процесс.

THE ROLE OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE FORMATION OF AN UNCOMPROMISING ATTITUDE TOWARDS CORRUPTION

ANNOTATION

In order to deal a serious blow to corruption, we must initially start with educational processes to create an uncompromising environment for combating corruption in society. The fight against corruption should become the moral and spiritual conviction of every citizen, regardless of who he is - a teacher, a customs officer, a civil servant, a prosecutor, etc., since it forms the core of anti-corruption education.

Keywords: corruption, society, offenses, uncompromising environment, education, educational process.

Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasini, hech ikkilanmasdan, mamlakatimizning kelgusi besh yillik rivojlanish dasturi, deb qabul qilishimiz mumkin. Bugun oldimizda 2030-yilgacha dunyodagi 50 ta rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, yalpi ichki mahsulotni qariyb 2 barobarga oshirish, “Raqamli O‘zbekiston - 2030” dasturini ishlab chiqish, bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini joriy yilda 60 foizga etkazish kabi ko‘plab vazifalar turibdi.

Aynan kadrlarni saralashda, taraqqiyot yo‘liga jiddiy to‘siq bo‘lib, jamiyat rivoji, sohalar yuksalishiga bevosita tahdid tug‘diradigan asosiy illat bu – korrupsiyadir.

Shu bois mamlakatimizda mustaqillikning ilk yillaridan bu illatni tag-tomiri bilan yo‘qotish, bu boradagi huquqiy asoslarni yanada mustahkamlashga jiddiy e‘tibor qaratilib kelindi.

Bu boradagi ishlarning mantiqiy davomi sifatida “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi bilan poraxo‘rlilik, mansabdand foydalangan holda qonunni suiste‘mol qilish, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug‘chilik asosida davlat tashkilotlarida ish tashkil qilib, iste‘dodli kadrlarning o‘shishiga to‘siq bo‘lish, jismoniy hamda yuridik shaxslarning davlat tomonidan qonun bilan kafolatlangan holda berilgan huquqlarini buzish, o‘z vazifasi bo‘yicha belgilangan majburiyatlarini bajarishni paysalga solib, ta‘magirlik qilish kabi holatlarda bunday qabihliklarni amalga oshirganlar uchun davlatning qat‘iy jazosi muqarrarligi aniq-ravshan belgilandi.

Kuchli fuqarolik jamiyati sari qadam qo‘yib borayotgan O‘zbekistonimiz hayotida bu Qonunning amalga tadbiiq etilishi taraqqiyot rivojiga katta hissa qo‘shuvchi omil bo‘lishi shubhasiz.

Mazkur qonun bilan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta‘minlash kabi qator ustivor yo‘nalishlar belgilab berildi. Bizningcha, shu yo‘nalishlar bo‘yicha fikrlashsak, “korrupsiyani engsa bo‘ladimi?” degan savolga javob topishimiz osonroq bo‘ladi.

Demak, korrupsiyasiz jamiyatga boshlovchi eng asosiy shartlardan biri bu - yuksak huquqiy ong va huquqiy madaniyat, jamiyatdagi korrupsiyaga nisbatan murosasiz muhitni shakllantirishdir.

Huquqiy ong, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda uzluksiz va samarali targ‘ibot bilan aholini qonun hujjatlaridan xabardor qilib borish, ularda qonunga hurmat ruhini tarbiyalash, o‘z huquq va burchlarini anglatish orqali shaxsni kamol toptirish maqsad qilinadi. So‘nggi vaqtlarda mazkur yo‘nalishda intensivlik ko‘zga tashlana boshladi. Misol tariqasida deyarli barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlarining axborot kanallari orqali, masalan Adliya vazirligining “Huquqiy axborot” loyihasi orqali yurtdoshlarimizga kundalik hayotida, har vaqt va har joyda zarur bo‘ladigan ma‘lumotlar etkazilayotganini aytib o‘tish joiz.

Bir soʻz bilan aytganda, korrupsiyaga qarshi kurashish bu - davlat taʼlim standartlari doirasida ishlab chiqilgan va taʼlim muassasalarida korrupsiyaga qarshi nuqtai nazarni shakllantirish, tinglovchilarning huquqiy savodxonligini va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan maxsus dasturlari asosida jamiyat va davlat manfaatlari yoʻlida amalga oshirilishi lozim boʻlgan taʼlimning maqsadli jarayonidir.

Bizning bunday yondoshuvimiz, tabiiyki, jamiyatimizda korrupsiya bilan bogʻliq muammolarning mavjudligi huquqiy savodxonlikning past darajadaliigi hamda huquqiy nigilizmning yuqori darajadaliigi bilan bogʻliq degan fikrga asoslanadi.

Yoshlar orasida huquqiy nigilizmni bartaraf etish uchun esa, eng avvallo bunday hodisalarni kelib chiqishiga sabab boʻladigan omillarni aniqlash lozim boʻladi. Bizningcha huquqiy nigilizmni vujudga keltiruvchi quyidagi bir necha omillarni sanab oʻtish mumkin:

- ayrim yoshlarda huquqiy bilimlarning etishmasligi;
- yoshlar orasida amalga oshiriladigan taʼlim-tarbiya jarayoni ustidan samarali nazoratning oʻrnatilmaganligi;

- yoshlar orasida huquqiy ong va madaniyatni targʻibot qilish natijalari etarli tahlil qilinmayotganligi va bunda yoshlar fikrini oʻrganuvchi turli xil davlat va nodavlat tuzilmalarining etarli tarzda tashkil etilmaganligi;

- qonunga itoatkor shaxsni “davr qahramoni” sifatida jamiyatda oʻz oʻrnini topishi uchun zarur mafkuraviy va targʻibot-tashviqot ishlarining etarli emasligi;

Bizningcha, shu va boshqa muammolarni bartaraf etish, aholining oltmish foizini yoshlar tashkil etadigan bizning mamlakatimizda ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega.

Ushbu tizimli muammolarni ijobiy hal etilishining hamda jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishning yagona va eng samarali yoʻli bu taʼlim tizimi orqali amalga oshirilishidir.

Shu bilan bir qatorda, taʼlim sohasining oʻzida korrupsiya holatlarining mavjudligi esa, yosh avlodning kelajakda korrupsion jamiyatni shakllantirishiga zamin boʻlib xizmat qiladi. Buni Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan uzluksiz taʼlim tizimining barcha turlarida, xususan, maktabgacha taʼlimdan tortib, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, shuningdek maktabdan tashqari taʼlimgacha kuzatish mumkin. Maktabgacha taʼlim muassasasida yoki maktabda taʼlim-tarbiya berish darajasining pastligi, albatta, taʼlimning boshqa bosqichlarida ham oʻz salbiy taʼsirini oʻtkazmay qolmaydi.

Ayniqsa, oʻtgan davr mobaynida taʼlim sohasida professor-oʻqituvchilar orasida malakali kadrlarning etishmasligi, iqtisodiy nochorlikning mavjudligi, maʼlumoti yoki ilmiy darajasini tasdiqlovchi hujjat bilan amaldagi bilim-saviyaning keskin farq qilishi, aynan taʼlim-tarbiya uchun masʼul shaxslarning oʻzi maʼnaviy barkamol emasligi taʼlim sohasidagi korrupsiyaning shakllanishi va avj olishiga olib keldi [1, 2].

Shu oʻrinda taʼlim tizimini tartibga solishda mavjud korrupsiyaviy omillar bu kabi holatlarning yuzaga kelishiga imkon yaratib berdi. Xususan, taʼlim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlaridagi “mumkin”, “ehtimol”, “huquqiga ega”, “qoida tariqasida” va shu kabi boshqa jumlar bilan qayd etiladigan diskresion normalarning mavjudligi, qarorlarni qabul qilishning sharoitlari va asoslarining mavjud emasligi, turlicha talqin qilishga imkoniyat yaratadigan normalarning mavjudligi kabi korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar sifatida sanab oʻtishimiz mumkin. Shu bilan birga, taʼlim boshqaruvida ham, taʼlim berish tizimida ham taʼlim oluvchilar va taʼlim beruvchilar uchun bajarilishi qiyin boʻlgan yoki ogʻirlashtirilgan talablarni qoʻyilishi ham oʻz navbatida korrupsiya omilini kuchaytiradi. Xususan, buning ayrim koʻrinishlarini keltirib oʻtishimiz mumkin:

*Birinchi*dan, taʼlim muassasalarining va ularda taʼlim oluvchilar kvotasining mavjudligi;

*Ikkinchi*dan, taʼlim beruvchilarning ijodiy erkinligini ragʻbatlantiruvchi omillarning mavjud emasligi, umuman olganda taʼlim ishtirokchilarining erkinligini cheklashga olib kelishi mumkin boʻlgan, ularning xatti-harakatlari va faoliyatining sababsiz va asossiz tartibga solinishida ifodalaniadigan munosabatlarning haddan tashqari ortiqcha huquqiy tartibga solinganligi;

Uchinchidan, ta'lim oluvchilarning o'z qiziqish va darajalariga ko'ra, ta'lim muassasiga qabul qilish va o'qitish tizimining shakllanmaganligi;

To'rtinchidan, ta'lim beruvchilar faoliyatida ularning zimmasiga tushunarsiz, bajarish uchun ehtiyoj bo'lmagan majburiyatlarning yuklatilishi;

Beshinchidan, ta'lim boshqaruvida huquq va erkinliklarni cheklashga qaratilgan va yuklatilishi qonun hujjatlari normalari bilan asoslantirilmagan talablarning o'rnatilishi;

Oltinchidan, ta'lim tizimini sohaviy potensialga ega bo'lmagan, faqatgina tegishli ma'lumotga ega ekanligini tasdiqlovchi hujjati asosida kadrlar bilan to'ldirilishi kabilar.

Fikrimizcha, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim maqsadlari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- korrupsiya hodisasining mohiyati, sabablari va oqibatlari to'g'risida xabardor qilish;
- korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni rivojlantirish va rag'batlantirish;
- tinglovchilarda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, mustaqil fikrlash, vaqtni tejashga doir ko'nikmalarni shakllantirish;
- demokratik qadriyatlarga hurmat, adolat va haqiqatga bo'ysunish, o'zi va boshqalarning xatti-harakatlari uchun mas'uliyat hissi bilan yashashni o'rgatish.

Shu bilan birga ta'lim jarayonida korrupsiyaga qarshi g'oyalarni ishlab chiqish, shartli rollarni o'ynash, audio va video materiallardan foydalanish, jamoat birlashmalari vakillarini jalb qilish, nizoli holatlarni muhokama qilish va unga tanqidiy qarash hamda keys-stadi kabi usullaridan foydalanish katta samara beradi.

Bizning ta'lim tizimiz boshqa davlatlardan eng asosiy farqlaridan biri bu albatta ta'lim va tarbiyaning yonma yon yurishi hisoblanadi. Buni muhimligini bobomiz *Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo xayot yo mamot, yo najot – yoxalokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" ta'kidlagan.*

Yuqoridagi masalalar bo'yicha xalqaro amaliyot tajribasini o'rganar ekanmiz, korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali usuli bu jamiyatda tabiiyki korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishdan iborat ekanligining guvohi bo'lamiz. Jumladan:

Braziliya. Kirish imtihonlari aksariyat OTMlarda mavjud emas. OTMlarga o'qishga qabul qilinishi umumori ta'lim bosqichida (maktabda) o'tkaziladigan Yagona Davlat Imtihoni (Rossiyadagi YeGE – Единый Государственный Экзамен каби) natijasi asosida amalga oshiriladi. Ayrim hollarda nufuzli OTMlar ixtisosligidan kelib chiqib, tegishli fanlardan qo'shimcha imtihon olish huquqiga ega.

Argentina. Argentina Senati davlat universitetlariga kirish imtihonlarini ta'qiqlovchi qonunni qabul qilgan. Shu asosda Argentina OTMlariga kirish uchun maktab davrida topshiriladigan bitiruv imtihonlari natijalari etarli bo'ladi. Biroq, Braziliya tajribasidan farqli ravishda ayrim nufuzli universitetlarga o'quvchi/nomzodlarga qo'yilgan kvota miqdoridan oshib ketgan hollarda qo'shimcha imtihon o'tkazish huquqi berilgan.

Fransiyada imtihonlar 28 ta akademiyalar mutaxassisleri tomonidan ishlab chiqiladi va ular to'rt guruhga bo'linadi. Ularning har biri o'z imtihonini ishlab chiqadi. Imtihonlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda xalq ta'limi vazirligi muhim o'rin tutadi. Unda o'quvchilarning tayyorgarligi baholanadigan mavzular, shuningdek, imtihon jadvali va ularni o'tkazish tartiblari belgilab beriladi. Imtihonlarning mazmuni bevosita mamlakat taftish xizmati vakillari ishtirokida maktab, litsey va oliy o'quv yurtlarining fan mutaxassisleri tomonidan ishlab chiqiladi. Imtihon qog'ozlarini maktab, litsey va oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari birgalikda tekshirishadi.

AQSHda universitet yoki kollej uchun umumiy kirish talablari mamlakat bo'ylab juda izchil tarzda bo'lib o'tadi. Aksariyat oliy o'quv yurtlariga uchun kirish uchun nomzodlar 11-sinfda dastlabki standartlashtirilgan baholash testi (Preliminary Standardised Assessment Test (PSAT) yoki dastlabki Amerika kollej testi (Preliminary American College Testing test (PLAN)larini topshirishadi. Bu turdagi testlar, odatda, oktyabr oyida bo'lib o'tadi va dekabr oyida javoblari e'lon qilinadi. Bu testlarning natijalari ularning OTMga qabul bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yaponiya. Bu davlatda 2021-yildan boshlab matematika va yapon tillaridan variantli test shaklidagi kirish imtihonlaridan voz kechilishi koʻzda tutilgan. Yakuniy davlat imtihonlarida ham huddi shu usulda boʻlib oʻtishi koʻzda tutilgan. Boshqa fanlardan variantli test topshiriladi va nufuzli OTMLarning koʻpchiligi bu jarayonni mustaqil ravishda oʻtkazish imkoniyatiga ega.

Malayziya. Bu davlatda kirish imtihonlarining oʻrniga 9 va 11-sinflar oxirida Malayziya Taʼlim vazirligining maxsus Malayziya Imtihon Konsulligi tomonidan alohida imtihon oʻtkaziladi. Shu imtihonlarda olingan ballarga asosan nomzodlar OTMga oʻqishga qabul qilinadi [3, B.88].

Xorijiy davlatlarning tajribalarini joriy etish oliy taʼlim muassasasiga kirishdan tortib, to bitirgungacha joriy etilsa oʻquv jarayonlarini shaffoflashishiga erishishimiz mumkin.

Yuqorida keltirib oʻtilgan fikrlarga asoslangan holda, shuningdek milliy va xorijiy tajribadan kelib chiqib, Oʻzbekiston Respublikasida taʼlim tizimini korrupsiyasiz sohaga aylantirish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni amaliyotga joriy etilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Oʻzbekiston Respublikasining taʼlim toʻgʻrisidagi kodeksini ishlab chiqish. Kodeksda barcha taʼlim turlariga (maktabgacha taʼlim, umumiy oʻrta taʼlim, oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi, oliy taʼlim, oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari taʼlim) boʻlgan qatʼiy talablarni joriy etishorqali qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarni qisqartirish;

2. Oʻzbekiston Respublikasida xususiy oliy taʼlim oʻquv yurtlarini tashkil etishga ruxsat berish. Mazkur oliy taʼlim oʻquv yurtiga kirish imtixonlarsiz, shartnoma mablagʻini toʻlash asosida qabul qilish tartibini joriy etish (AQSH amaliyoti). Bunda, xususiy oliy taʼlim oʻquv yurtlarini tashkil etish huquqini beruvchi aniq mezonlarni oʻzida aks ettirgan normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqish;

3. Xususiy oliy taʼlim oʻquv yurtlarida joriy baholashni reyting tizimida har bir oʻquv yili uchun oʻtkazish va yakuniy imtixon (yoki test) amaliyotidan voz kechish (AQSH amaliyoti);

4. Davlat test markazi faoliyatining shaffofligini taʼminlash maqsadida barcha xodimlarning xatti-harakatlarini sutkaning 24 soati davomida bodikameralar orqali nazorat qilishni joriy etish. Nazorat qilish davri kirish test imtihonlari boshlanishidan 2 kun avval boshlanib, ushbu imtihonlar tugaganidan va test javoblari eʼlon qilinganidan soʻng tugashi lozim. Bodikamerada olingan ovozli tasvirlarni internet tarmogʻi orqali barcha shaxslar erkin tanishish imkoniyatlarini yaratish;

5. Abiturientlarning test javoblari yozilgan varaqalari test oʻtkazilgan xonaning oʻzida skaner qilinib, erkin tanishish mumkin boʻlgan holda internet tarmogʻiga joylanib, soʻngra baholash uchun test markaziga yuborish. Bunda, barcha test imtihonlari yakunlanganidan soʻng, har bir variant boʻyicha test savollarini erkin tanishish mumkin boʻlgan holda internet tarmogʻiga joylash va har bir test javobini ixtiyoriy shaxs tomonidan tekshirib chiqish imkonini berish;

6. Kirish imtihonlarida qatnashadigan har bir kuzatuvchini va huquqni himoya qiluvchi organ vakilini soat 7:00dan 17:00ga qadar bodikameralar bilan taʼminlash va kun yakunida ulardagi ovozli tasvirlarni barcha shaxslar uchun erkin tanishish imkoniyati bilan internet tarmogʻiga joylash. Bunda abiturientlardan tashqari, kirish imtihonlari jarayonida ishtirok etuvchi birorta shaxsning bodikamerasiz yurishiga yoʻl qoʻyilmaslik lozim.

7. Umumiy oʻrta taʼlim muassasalaridagi alohida olingan har bir fan yoʻnalishi boʻyicha yakuniy imtihon (test) natijalarini oliy taʼlim oʻquv yurtlariga kirish imtihoni (test) natijasi sifatida qabul qilish (Argentina, Rossiya amaliyoti) [4].

ИҚИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni. - <https://lex.uz/docs/3088008>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019 yil 27 maydagi PF-5729-son Farmoni. - <https://lex.uz/docs/4355387>
3. O‘rinboev A.G‘, Qodirov M.S. Jamiyat rivojiga rahna solayotgan illat. Uslubiy qo‘llanma. – T.: BI, 2019.
4. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari bazasi.

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 2-СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-2

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-2

«Фундаментал тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz